



NAVOIY IJODIDA ANALITIK VA SINTEZLASHGAN FOLKLORIZMLAR

Rajabova Ma’rifat Baqoyevna,
BuxDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.

Annotatsiya. Ma’lumki, o‘zbek adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabati, o‘zaro ta’siri masalasini buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodi misolida o‘rganish alohida yo‘nalish sifatida ko‘pdan rivojlanib kelmoqda. Boisi, ulug‘ shoir asarlarida Alisher Navoiyning nazmiy va nasriy asarlarining g‘oyaviy-badiiy ruhiga xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarda uchraydigan ayrim afsona, rivoyat, ertaklar boricha yoki ularga xos mazmun, syujetni singdirib yuborilganligi kuzatiladi. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida folklorizmning analitik va sintezlashgan ko‘rinishlari tahlilga tortilgan. Ularning badiiy asardagi funksiyasiga doir fikr- mulohazlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. **Folklor, folklorizm, stilizatsiya,** analitik folklorizm, sintezlashgan folklorizm, afsona, doston, hikoyat.

ANALYTICAL AND SYNTHETIC FOLKLORISMS IN NAVOI'S WORK

Abstract. As it is known, in Uzbek literary studies, the study of the relationship and interaction of folklore and written literature on the example of the work of the great Uzbek poet Alisher Navoi has long been developing as a separate direction. Therefore, in the works of the great poet, it is observed that the ideological and artistic spirit of Alisher Navoi's poetic and prose works is absorbed into the ideological and artistic spirit of some legends, tales, and fairy tales found in works belonging to folk oral art, or their content and plot. This article analyzes the analytical and synthesized manifestations of folklore in the works of Alisher Navoi. Opinions are expressed about their function in a work of art.

Keywords: Folklore, folklorism, stylization, analytical folklorism, synthesized folklorism, legend, epic, story.

**АНАЛИТИЧЕСКИЕ И СИНТЕТИЧЕСКИЕ ФОЛЬКЛОРИЗМЫ В
ТВОРЧЕСТВЕ НАВОИЯ**

Аннотация: Как известно, в узбекской литературоведении вопрос взаимосвязи и взаимодействия фольклора и письменной литературы развивается как отдельное направление, и изучение этого вопроса на примере творчества великого узбекского поэта Алишера Навои занимает важное место. Это связано с тем, что в произведениях великого поэта, как в его поэтических, так и прозаических произведениях, встречаются элементы

народного устного творчества, такие как некоторые мифы, легенды, сказки, которые сохраняют их сюжетные линии и смысл, или же эти элементы становятся частью содержания произведений. В данной статье анализируются аналитические и синтетические формы фольклоризма в произведениях Алишера Навои. Также высказываются мнения о их художественной функции в произведениях.

Ключевые слова: фольклор, фольклоризм, стилизация, аналитический фольклоризм, синтетический фольклоризм, миф, эпос, рассказ.

Kirish.

Dunyo xalqlari yozma adabiyoti badiiy takomilida folklor janrlari, motiv va obrazlari stilizatsiyasining alohida o‘rni borligi tufayli yozma adabiyot bilan folklor aloqalarini, bir-biriga ta’sirini o‘rganish hamisha muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Agar bu adabiy jarayon mumtoz shoir ijodi misolida o‘rganilsa, u mansub bo‘lgan adabiyotning janrlar tizimi va tarkibini, unda yuz bergen poetik o‘zgarishlar, yangilanishlar, shakliy-uslubiy izlanishlarni yanada to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Alisher Navoiy ijodida o‘zbek folklorining mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, doston, latifa singari epik, xalq dramasi janrlari, lirik va marosim qo‘sishlari, allalar, yig‘i-yo‘qlovlar hamda paremik xarakterdag‘i maqol, topishmoqlar, shuningdek, olqish, qarg‘ish kabi so‘z sehriga ishonchni ifodalovchi kichik hamda xalq tomosha san’atiga aloqador yumoristik va satirik janrlar, an’anaviy motiv va obrazlar stilizatsiyasi kuzatiladi. Bu esa folklojni ulug‘ shoir ijodining asosiy manbalaridan biri baholashga imkon beradi.

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo” singari asarlari tarkibiga, “Xamsa” tarkibidagi dostonlari g‘oyaviy-badiiy ruhiga xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlarda uchraydigan ayrim afsona, rivoyat, ertaklar boricha yoki ularga xos mazmun, syujetni singdirib yuborish ko‘rinishida keltirilgani kuzatiladi. Ulug‘ qalam sohibining bunday analitik, sintezlashgan folklorizmlarini farqlash uchun esa ularni jiddiy o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Analitik folklorizmlar asar tarkibida alohida ajralib turishi bilan xarakterlanadi. Ular asarda ko‘pincha folklordagi ko‘rinishida to‘liq saqlanadi, deyarli hech ishlovsiz keltiriladi. Bunga Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy, forsiy va hindiy kabi uch til asl tillar ekanini ta‘kidlash, ularning kelib chiqishini izohlash uchun keltirgan Nuh payg‘ambar va uning Yofas, Som va Hom ismli uch o‘g‘li haqidagi afsonani misol qilish mumkin. Navoiy unda Nuh alayhissalamning to‘fon tashvishidan qutulgach, bashar jinsidan osor va inson nav‘idin namudor qolmagani uchun Yofasni Xito multiga, Somni Eron va Turonga, Homni Hindistonga yuborganini aytadi. Shu mulkdagi odamlar bu uch payg‘ambarzoda avlodni bo‘lgani uchun Yofas – Abut-turk, Som – Abul-furs, Hom – Abul-hind deyilganini ta‘kidlaydi. So‘ngra nega turk tili Yofas, forsi tili Som, hind tili Homga buyurilganini izohlovchi afsonani davom ettirib, bunga ularning otasiga munosabati sabab bo‘lganini so‘zlaydi: “Chun Hom No‘h alayhissalomga beadabliq qilg‘on jihatdin aning

muborak tiliga Hom borasida qarg‘ish o‘tub erdi, bu sababdin aning rangi bayozi savodg‘a mubaddal bo‘lub, tili shikastalik zohir qilib, fasohat va balog‘at hulyasidin oriy qoldi va avlodu atbo‘iki, Hind kishvari ahli bo‘lg‘aylar, lavnlari maktab ahli mashqi varaqidek shabrang, balki shabgun va tillari atfolning uchi ushalg‘on qalamidek o‘zgacha ado bila tahriru taqrir zevaridin ojizu zabun qoldilar. Onsiz ham bo‘lmagaykim, biror varaq yuzini murakkab qarosi bila o‘z yuzlari safhasidek qaro qilg‘aylar na o‘z tillaridek shikasta qalam tili bila ado etmaganlar. Ammo ul safha raqamin o‘zlaridin o‘zga kishi bilmas va ul kalog‘polarni ul savod ahlidin o‘zga birov o‘qumas va fahm qilmas”.

Tahlil va natijalar. Navoiy bu afsona misolida turk tilining mavqeい yuksakligini, ulug‘ligini ta’kidlashni ko‘zda tutib, uni asar matnida keltiradi. Biroq xuddi shu afsona Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari syujetida hozirgacha o‘tgan payg‘ambarlar bilan tanishtirish maqsadida ham keltirilgan.

Navoiy payg‘ambar va hukmdorlar haqida yaratilgan xalq afsona va rivoyatlari, xalq ertak va qissalari syujetini o‘zlashtirib, yaratgan asari tarkibiga mahorat bilan yedirib yuborgan. Shuning natijasida sintezlashgan folklorizm hosil bo‘lgan.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibidagi ilk doston “Hayrat ul-abror”da shoir o‘zi yashagan davr (XV asr)ning realistik hayot lavhalarini tasvirlar ekan, o‘sha davrga xos muhit manzarasini real chizib ko‘rsatish, illatlarni ochib tashlash, xalqning orzu-armonlarini kuylash, turli ijtimoiy tabaqalarni ta’rif-tavsif qilish, ularning shakl-shamoyilini, aft-basharasini, kiyim-kechagini, fe'l-atvorini, maqsad-muddaosini yoritish uchun xalq orasida ma’lum va mashhur bo‘lgan maqollar bilan bir qatorda “Hotami Toy”, “Tilla kampir”, “Sher bilan Durroj”, “Iskandar” kabi xalq afsona va rivoyatlari, naqlari syujetidan ham ijodiy foydalanilgan.

Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi sevgi munosabatlari aks etgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” dostonlarining barisida xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan va ommalashgan afsonayu ertaklar asos qilib olingan. Chunki undagi Farhod va Shirin, Layli va Majnun obrazlari xalq og‘zaki ijodidagi an’anaviy afsonaviy obrazlar bo‘lib, ular bilan bog‘liq turli tarixiy ma’lumotlar, afsona, ertak, rivoyat va qo‘shiqlar yetib kelgani aytildi. Jumladan, “Farhod va Shirin” afsonasining syujeti markaziy Qoraqumda bino bo‘lgan “Devqal’a” toponimik afsonasi syujeti bilan ham o‘xshashligi aniqlangan. Qolaversa, O‘zbekistonda Farhod va Shirin nomlari bilan ataluvchi bir necha joylar mavjud. Jumladan, Bekoboddagi Shirinsoy va Farhodtoga, Boysundagi Bibishirin qishlog‘i, Sheroboddagi Shirin dahmasi shular sirasiga kiradi.

Shoir “Farhod va Shirin” dostonini yozishdan avval bu mavzuga doir tarixiy manbalar va afsonalarni to‘plash, ularni o‘rganish vazifasini o‘z oldiga qo‘ydi. Ayniqsa, dostonning 8-bobida Navoiy o‘zi foydalangan manbalar haqida so‘zlaydi. Doston syujetining xalq og‘zaki ijodidagi mavjud manbalari to‘g‘risida A.Fitrat, Xurshid, O.Sharafiddinov kabi olimlar ilk bahslarni boshlashgan. Binobarin, Xurshid “Farhodu Shirin” o‘zimizning ona cho‘pchagimiz, har bir o‘zbekning yoshlik chog‘idan miyasiga o‘rnashib qolgan bir hikoya ekanini, u el og‘zida Xitoy, Arman, Eron kishilari orasida o‘tkanligini, ammo Turkistonda Xo‘jand shahri yonidagi

Mirzacho‘l ustida bo‘lgan Farhod tog‘i, Shirin soyiga qarab, uni Turkiston bilan bog‘lash mumkinligini aytса, Fitrat Xurshidning bu fikrini inkor qiladi va “Farhod – Ko‘hkan” afsonasi g‘arbiy Eronda qasri Shirindan ko‘p uzoq bo‘lmagan Besutun tog‘idagi tarixiy rasmlar asosida tug‘ilgan bo‘lsa kerak degan taxminni bildiradi. Besutun Eronda joylashgan tog‘ oralig‘idagi qoya bo‘lib, undagi suratlarni Farhod chizgan va u shu tog‘ etaklarida kanal qazigan degan rivoyatlar aytildi.

Shunisi ayonki, Alisher Navoiy Farhod va Shirin obrazlarini yangicha talqin qilib, haqiqiy qahramonlar darajasida tasvirladi. U boshqa xamsanavislardan farqli o‘laroq, Shirinni armaniyalik sifatida tasvirladi. Aslida afsona va dostonlarda Shirin goh eronlik, goh rumlik deb beriladi.

Xisrav ham Sharq xalqlari og‘zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz. Uning tarixiy ildizi sosoniy podshohlaridan Xisrav II Parvez (VI asr oxiri) faoliyatiga borib taqaladi. Badiiy adabiyotda, chunonchi Firdavsiyning “Shohnoma”si, Nizomiyning “Xisrav va Shirin”ida u ideal shoh. Alisher Navoiyda esa Xisrav mutlaqo salbiy qahramon sifatida talqin etilgan.

IX bobning sarlavhasida Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini yozishga kirishar ekan, asarning rejasini tuzib olgani, turli afsonalar, tarixiy manbalarni ko‘rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatib, o‘z g‘oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilganini yozadi. Bunda u g‘oyat obrazli qilib: “Bu iqbol varaqlarining muqobalasi va bu saodat tarhlarining mutorahasi va xayol bahrida maoniy tuhafi savdosi uchun masohat qilmoq va har fasona safinasin varaq-varaq, balki har tarix jungin safha-safha axtarib daryozada ajnosqa rad iligin urmoq va maoniy aqmishasi nafoyisin bu latofat hujlasi oroyisi uchun g‘ayb tujjoridin hayot naqdin berib savdo qilmoq va jon rishtasi va kirpik ignasi bila libosi namoyish va xil’ati oroyish tikib bu abkor qadlarig‘a solib jilva bermak”, – deb yozadi. Demak, shoир ushbu dostonini yozishdan maqsadi “har fasona safinasin varaq-varaq ... axtarib”, ularga “jilva bermak” bo‘lganligini o‘zi ham mana shunday ochiq bayon etgan.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bilan XYI-XYIII asrlarda O‘rta Osiyoda keng tarqalgan qahramonlik ruhidagi “Rustamxon” xalq dostoni⁵²⁴ motiv va obrazlari tuzilishida ham ayrim o‘xshashliklar borligi seziladi. Masalan, har ikkala doston bevosita farzandsizlik motivi bilan boshlangan. Jumladan, “Farhod va Shirin” dostonida keksa Chin hoqonining farzandli bo‘lishi tasvirlansa, “Rustamxon”da Oqtosh eli hukmdori Sultonxonning uzoq kutishlardan so‘ng o‘g‘illi bo‘lishi keltirilgan.

Har ikkala bosh qahramonning bolaligidan puxta ilm-hunar egallashiga ota-onasi katta e’tibor qaratadi:

Farhod:

Ajabdur uch yoshida ko‘zga atfol,
Nechukkim o‘n yoshida o‘zga atfol.

⁵²⁴ . Алпомиш. Рустамхон. Жаҳон болалар адабиёти кутубхонаси. – Т.: FACH, 1985. – Б.349-445.

Rustam:

“Rustum tug‘ilib, tilga enganda onasi madrasadan bir mullani olib kelib, mulla bilan Rustamni tagizaminga solib, o‘qittira boshlaydi”.

Shahzoda Rustam otasining toju taxtini olmay, undan o‘z ixtiyori bilan voz kechgani kabi Farhod ham otasining yakkayu yolg‘iz tilab olgan farzandi, toj-taxtining merosxo‘ri bo‘lishi qaramay, hokimiyatdan ixtiyoriy bosh tortadi.

Farhodning Ahraman devni o‘ldirgani Rustamning Mozandaronda Arjang devni mavh etganiga o‘xshatiladi. “Osmon Rustami” – Farhod quyoshdek qilichini ko‘tarib, Oq devning bo‘yniga soldi, deydi Navoiy. Yana Farhodning ajdaho bilan kurashib, xazinani qo‘lga kiritgani kabi Rustamxon ajdahoni o‘ldirib, Oftoboy visoliga erishgani, Farhod Xisrav yollagan maston kampirning hiylasi bilan halok bo‘lsa, Rustamxon maston kampirning nayrangi tufayli ko‘r bo‘lib qolishi o‘xhash motivlar sifatida e’tiborni tortadi.

Alisher Navoiy Farhod obrazini garchi Firdavsiy “Shohnomasi”dagi Rustam timsolidan foydalanib yaratgan bo‘lsa ham, bu obrazning asoslari Rustam haqidagi xalq afsonalariga borib taqalishini inkor etib bo‘lmaydi. Bizningcha, “Farhod va Shirin” va “Rustamxon” dostonlari biri yozma, biri og‘zaki ijod namunasi bo‘lsa-da, mazmun-mohiyatiga ko‘ra qahramonlik tipidagi dostonligi sababli badiiy kompozitsiyasida shunday o‘xhashliklar kuzatiladi.

D.O‘raeva bu borada fikr yuritar ekan, shunday yozadi: “Rustum va Farhodning o‘xhashligidagi ilk belgi – ularning ismida “dard” tushunchasining zohirligida namoyon bo‘ladi. Binobarin, Firdavsiy “Shohnoma”sida Rustamning dunyoga kelishi va unga ism kuyilishi haqida shunday hikoya qiladi: Zolning xotini Rudoba og‘ir homila ko‘taradi. Oy-kuni yaqinlashganida **dard** boshlanishi bilan hushidan ketadi. Sarosimaga tushgan Zol afsonaviy qush Simurg‘ vositasida jarroh topib keladi. Jarroh onaning yonini kesib, bolani oladi. Hushiga kelgan Rudoba farzandini ko‘rib xursand bo‘ladi va oh tortib, ya’ni **azobu dardlardan xalos bo‘Idim** ma’nosida «Rustum!» – deydi. Onaning og‘zidan birinchi chiqqan ana shu so‘zni bolaga ism qilib qo‘yadilar”.

Agar Farhod ismiga e’tibor berilsa, “dard” so‘zi uning ismida ham zohirdir. Farqi shundaki, Rustam “darddan xalos etuvchi” bo‘lsa, Farhod ishq dardi mubtalosidir.

Har ikkala dostonda chinlik Farhodning arman qizi Shiringa, oqtoshlik Rustamning bujullik Oftoboyga ko‘ngil qo‘yishi, ularning xotin-qizlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi xalq dostonlari ruhiga hamohangdir.

Doston kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqeа-hodisalarni qamrab olgan. Favqulodda kuch-qudratga hamda aql-zakovatga ega bo‘lgan Farhod siymosida butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Dostonda sehrli ertaklar va romanik hamda qahramonlik dostonlarida uchraydigan an‘anaviy epik motivlar keng qo‘llangan va ulardan doston syujeti tarkib topgan. Ayniqsa, doston syujetida juda ko‘p mifologik obraz va motivlardan foydalangan holda, asarning epik ruhini, xalqchillagini oshirishga erishilgan. Jumladan, Farhodning otasi xazinasida tilsim (sehrli) oynaga duch kelishi, uning Ahriman dev va ajdar bilan xalq ertaklari bahodirlari singari olishib, g‘alaba qilishi hamda

ular qo‘riqlayotgan tilsim xazina va sehrli uzukni qo‘lga kiritishi, afsonaviy Jamshid jomiga ega bo‘lishi, Jomosb bashoratining syujet voqealari rivojiga yo‘l ochishi, besh yuz yil g‘or ichida yashayotgan Suhaylo bilan uchrashishi, Samandar yog‘idan foydalanishi kabilar shular qatoriga kiradi.

Ko‘rinadiki, dostonning motivlar tarkibi ko‘p qatlamlı bo‘lib, unda motivlar aniq tartibda kelgan va doston syujetida bir necha an’naviy epik motivlar o‘zaro mantiqiy bog‘lanib, yaxlit badiiy syujetni hosil qilgan. Xayoliy uydirma, an’naviy epik motivlar, epizodik lavhalar, “sehrli raqamlar”, an’naviy mifologik obrazlar “Farhod va Shirin” dostonining syujetidagi voqea-hodisalarning bir-biriga mantiqan bog‘lanib kelishini ta’minlovchi muhim omillar ekanligi kuzatiladi. Masalan, dostonda “sehrli” raqam deb qaraluvchi to‘rt soni bilan bog‘liq motivlar ham alohida o‘rin egallagan. Bunga hoqonning shahzoda Farhodga atab to‘rt yilda qurdirgan to‘rt faslga mo‘ljallangan to‘rt qasri voqeasi misol bo‘la oladi.

“Farhod va Shirin” dostonida uchraydigan an’naviy epik motivlardan yana biri yo‘l va uning uchga bo‘linishi motividir. Bunda yo‘lni, aniqrog‘i, uchinchi tilsim yo‘lini topolmay turgan Farhodga Xizr ko‘makka kelib, yo‘l ko‘rsatadi.

Dostonda maston kampir timsolining berilishi ham ertaklarga xos motivlardan biridir. Dostonning qirq sakkizinchı faslida makkora kampir Farhod boshiga ajaldek yetishib, uning hayotiga qasd qilgani bayon etilgan. Qaddi ikki bukilgan bu qari kampirning hiyla-nayrangi falaknikiga o‘xshardi. Shoир uni shunday tasvirlaydi:

Xututi makrdin yuzinda yuz chin,
Tiliga o‘tmayin umrida so‘z chin.
Chu soz aylab fusunu hiylai shum,
Qo‘lida xora yumshab, uylakim mum.
Atab ko‘k pir zoli xola oni,
Ano deb Dallat ul-muhtola oni.

Bu misralarda shoир afsonalarda o‘z ayyorligi, makr va hiylalari bilan nom chiqargan ayol nomini keltirish bilan talmeh san’atini ishlatmoqda.

Xullas, Xisrav Parvez tomonidan yo‘llangan shu makkora kampirning hiylasi tufayli Farhod o‘z-o‘zini halok etadi.

Dostondagi an’naviy motivlardan yana biri Farhodning bir ko‘rishdayoq Shirinka oshiq bo‘lib, hushidan ketishi motividir. Bunda Shirinining yuzidagi harir pardani shamol ko‘tarib yuboradi. Shundan yigit qizning oy jamoliga ko‘zi tushib, unga oshiqu beqaror bo‘lib qoladi. Farhod Shirinni va Arman vodiysini ilk marta tilsim oynada ko‘rib hushidan ketadi.

Ma’lumki, xalq dostonlarida epik qahramonlarning oti ta’rifi bilan bog‘liq motivlar alohida o‘rin tutadi. E’tiborli tomoni shundaki, “Farhod va Shirin” dostonida ham ana shu an’anaga sodiqlik kuzatiladi. Dostonda malika Shirinining “Gulgún” ismli otining ta’rifi ayricha e’tibor bilan keltirilgan:

Bor edi bodpoyi rangi gulgun,
Qolib andin yururda xingi gardun.

Anga rokib hamisha ul parivash,
Bo‘lub ul devpaykar ham parikash.
O‘zi gulrangu gul monand zoti,
Bo‘lub Gulgun xaloyiq ichra oti.

Bu baytlarda shoir Shirinni – parivash, uning otini devpaykar – dev gavdali deb ta’riflamoqda. Bu ot bodpoy, ya’ni yeldek tezyurardir.

Dostonda Shopurning Farhodga chin va samimiy do‘stligi “Alpomish” dostonidagi Hakimbek bilan Qorajonning o‘zaro do‘stligini yodga soladi. Shu jihatdan Shopur obrazi ham dostonda muhim o‘rin tutadi. Shopur obrazi ijobiy qahramonlardan biridir. U sof dil, samimiy kishi. Shopur iste’dodli va usta rassom edi. Farhod Shopurni va uning hamrohlarini dengizda qaroqchilaridan qutqaradi. Shundan so‘ng Farhod bilan Shopur o‘rtasida do‘stlik paydo bo‘ladi. Shopur yaxshilikni unutmaydi, do‘stiga umrbod sodiq bo‘lib qoladi. Shopur Farhodning sarguzashti va orzulari bilan tanishgach, unga yordam ko‘rsatish, uni baxтиyor qilishga va’da beradi. Shopur Farhodni Armanistonga olib boradi, uning hamma ishiga ko‘maklashadi. U Farhodning sevgilisi Shiringa ham sadoqatli do‘st bo‘ladi. Shopur Armanistonni Xisravning hujumidan himoya qilishda mardlik ko‘rsatadi. Farhod o‘limi oldida Shopurga minnatdorchilik bildiradi. Shopur Farhodning vasiyatini bajarib, uning ko‘kaldoshi (bir onadan sut emgan begona bola) Bahrom bilan birga Xisravning o‘g‘li Sheruyaga qarshi kurashib, uni yengadi, Armanistonda osoyishtalik o‘rnatadi.

“Sab’ai sayyor”dagi Mehr va Suhaylning dengiz qaroqchilariga qarshi kurashuvi va boshqa epizodlar ham badiiy tasvir jihatidan xalq ertaklari, afsonalariga juda o‘xshaydi.

Shuni ham aytish mumkinki, Alisher Navoiy afsona, rivoyat, naql, qissa so‘zlarini chegaralamasdan qo‘llagan. Shuning uchun quyidagi fardida shunday yozadi:

Belu og‘zidin, dedilarkim, degil afsonae,
Boshladim filholkim, “Bir bor edi, bir yo‘q edi”.

Aslida afsonalar hech qachon “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan” deb boshlanmaydi. Bunday boshlanma, odatda xalq ertaklariga xosdir. Navoiy “afsona” va “fasona” atamalarini baravar qo‘llashi bilan birga, xalq ertaklari va dostonlarining boshlanmasi orqali ma’shuqaning betakror tasvirini chizishga erishada. Ya’niki, baytda “bir bor” edi deyilganda ma’shuqaning beli, “bir yo‘q” edi deyilganda og‘ziga ishora qilingan.

Yozma badiiy adabiyotda afsonalardan kompozitsion va estetik vosita sifatida foydalanish an’anasi mumtoz shoir Alisher Navoiy ijodida yanada taraqqiy ettirilgan.

“Xamsa”ning uchinchi dostoni “Layli va Majnun” ham Layli va Majnun nomi, ularning qayg‘uli sevgisi haqida yaratilgan xalq qo‘shiqlari, afsona va rivoyatlari ta’sirida yaratilgan. Buni shoirning o‘zi shunday e’tirof etadi:

Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.
Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun...

Bu misralar orqali Navoiy maqsadi afsona so‘zlash emas, balki mazmun bayon etish ekanligini ma’lum qilmoqda. Afsona asarning tashqi shakli, qobig‘i xolos. Aslida dostonning asosiy g‘oyaviy mohiyatini shoir yashagan muhitning dolzarb muammolar, sevgi va oila, feodal jamiyatda xotin-qizlar taqdiri masalalariga munosabat bildirish tashkil qiladi. Dostonda maishiy hayot lavhalari, marosimlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar shoir yashagan XV asr hayoti nuqtai nazaridan tasvirlangan.

“Xamsa”ning to‘rtinchı dostoni “Sab’ai sayyor” Bahrom Go‘r haqida Eronda va u bilan qo‘shni bo‘lgan o‘lkalarda, jumladan, O‘rta Osiyoda keng tarqalgan turli-tuman afsona va rivoyatlar ta’sirida yaratilgan. Ularda Bahrom Go‘r shavkatli hukmdor, mohir ovchi, ishratparast shaxs sifatida tasvirlanadi. “Sab’ai sayyor”dagi hikoyalar xalq ertaklari kabi yetakchi qahramonlarning g‘alabasi bilan yakun topadi.

“Xamsa”ning beshinchi, so‘nggi dostoni “Saddi Iskandariy” turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan Iskandar (Aleksandr Makedonskiy) haqidagi turli-tuman afsona va rivoyatlar, ertaklar ta’sirida yozilgan. Biroq Navoiy yaratgan Iskandar obrazi xamsachilik va xalq og‘zaki ijodi an’analari taraqqiyotida o‘ziga xos yangilik bo‘ldi. Navoiy Iskandar obrazi orqali adolatli va ma’rifatparvar ideal shoh timsolini yaratishni ko‘zлади.

Dostonda “Iskandar va gado hikoyati”, “Majnun hikoyati”, “Ikki rafiq hikoyati”, “Kabutar hikoyati” kabi xalq ijodi asosida yaratilgan hikoyalar matni uchraydi. Shuningdek, dostonda xalq qo‘shiqlari va maqollaridan namunalar ham keltirilganligi kuzatiladi. Aytaylik, shoir Iskandarning Ravshanak va Mehrinozga uylanishi marosimini tasvirlar ekan, to‘y o‘lanlaridan misol keltiradi. Ular analitik folklorizm sifatida e’tiborni tortadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning asarlari mumtoz adabiyot an’analari negizida yaratilgan bo‘lsa-da, ularda xalq ijodining ham samarali ta’siri seziladi. Folklor manbalari ta’sirida yuzaga kelgan Navoiy folklorizmlari esa xalq asarlari syujeti, motiv va obrazlaridan yozma adabiyotda foydalanish tajribasining tadrijini xususida ilmiy fikr yuritish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Alpomish. Rustamxon. Jahon bolalar adabiyoti kutubxonasi. – T.: FASN, 1985.
2. Jo‘raev M. Ertaklarda “sehrli raqamlar”. – T.: Fan, 1983.
3. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoni. Favoidul-kibar. Asarlar. XV tomlik. IV tom – T. Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
4. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. VIII jild. Farhod va Shirin. – T.: Fan, 1991.
5. Navoiy A. Tarixi anbiyo va hukamo. MAT. 16-tom. – T.: Fan, 2000
6. Rajabova Marifat Bakayevna Artistic interpretation of the mythonyms of Angel and Devil in the works of A.Navoi. Middle European Scientific Bulletin ISSN 2694-9970. VOLUME 5, OCTOBER 2020.

7. Rajabova M. B. Alisher Navoiy ijodida olqiy va qarg‘ish. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. 2020. № 3.

8. Rajabova Ma’rifat Baqoyevna. Alisher Navoiy lirikasida iboralarning uslubiy jilolari. Namangan davlat universiteti ilmiy axboronomasi. 2020. № 6.

9. Иботова Мадина. Jon – jism, jon –ishq munosabatlari Alisher Navoiy talqinida. Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar. II an’anaviy xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro, 2024.

10. Иботова Мадина. Jon va ruh haqidagi ilohiy-irfoniy, falsafiy qarashlar, ularning badiiy ijoddagi in’ikosi. Айний ворислари. Халқаро электрон журнал. 2024. №1 (4) 2024.